


87. Kubning yoyilmasi

Yondosh mavzu:
haykaltaroshlik.


Kub, qirra, yoq,
uch, yoyilma.




1. Shakllarni ikki guruhga ajrating. Ularni qanday alomatlariga ko'ra guruhlarga ajratish mumkin?




2. Usta yog'ochdan kub shaklidagi quti yasayapti. Buning uchun u nechta kvadrat yasashi kerak? Xulosa qiling: kubning nechta qirradi bor?



3. Bu shaklni katak daftarning bo'sh varag'iga ko'chirib chizing. Shaklni qirqib olib, kerakli tomonini bo'yang. Bu shakldan kub yasay olasizmi?




Yasalgan kubni oldingizga qo'ying. Uning bo'yalgan tomonini ko'rsating.





Kubning 6 ta qirrasini bor. Uning har bir yog'i kvadratdan iborat. Kub to'la sirtining yuzi uning barcha yoqlari yuzlari yig'indisiga teng.


$$S = a \cdot a \cdot 6$$



4. Kub qirrasining uzunligi 7 cm. Toping:




a) bir tomoni yuzini;





b) kub to'la sirtining yuzini.



5. Bog' uchta yonma-yon turgan silindr shaklidagi haykal bilan bezatilgan. Eng past silindrning massasi 59 kg, o'rtancha silindrning massasi esa bundan 35 kg ko'p, lekin eng baland silindrdan 10 kg kam. Barcha haykallarning umumiy massasini toping.



6. Sonlarni o'qing. Sonlarning xonalarini ayting. Qaysi son eng katta? Qaysi son eng kichik?



7. Tengsizliklar to'g'ri bo'lishi uchun yulduzchalar o'rnida qanday raqamlar turishi kerak?

$$2\ 589 < 2\ 5^*9$$

$$9\ 998 > 9\ 99^*$$

$$7\ 89^* < 7\ 891$$

$$10\ 000 > ^*999$$

$$63\ **5 > 63\ 885$$

$$57\ 823 < 5^*\ 82^*$$

87. Kubning yoyilmasi



8. Ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini hisoblang.
- a) 235 minglik 620 birlikdan iborat songa 15 minglik 3 birlikdan iborat sonni qo'shing.
- b) 2 o'nlik 5 birlikdan iborat sonni 7 o'nlikdan iborat songa ko'paytiring.



9. Aziza bog'da ajoyib haykalni ko'rib qolib, undagi yozuvlarni esladi. Azizaga bu yerda qaysi sonlar yashiringanini topishga yordam bering. Ularni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing.

$$\begin{aligned} | &= 1 \\ \cap &= 10 \\ \text{?} &= 100 \\ \text{?} &= 1000 \end{aligned}$$



10. Rasmda bitta kubning har xil tomondan ko'rinishi tasvirlangan. Uning qarama-qarshi yoqlari rangini yozing.



11. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing.
23 456 672, 20 300 567, 558 005, 120 300, 407 000.



12. Kub shaklidagi yashik 6 ta bir xil kvadrat bo'lakdan yasaldi. Har bir bo'lakning tomoni 6 dm 3 mm bo'lsa, yashik to'la sirtining yuzini toping.